

**O'zbekiston Respublikasi**  
**yalpi hududiy mahsuloti<sup>1</sup>**  
2026- yil yanvar-mart oylari uchun<sup>2</sup>

- I. Yalpi hududiy mahsulot
- II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi
- V. Izohlar
- VI. Havolalar

**I. Yalpi hududiy mahsulot**

Statistika dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2026- yil yanvar-mart oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

**YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-mart**

	2025- yil <sup>3</sup>		2026- yil	
	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi <sup>4</sup>	372 829,9	106,8	447 935,3	108,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10 272,0	104,3	12 495,8	112,9
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	19 064,6	105,8	22 701,2	108,6
Buxoro	15 214,0	106,0	18 176,9	109,6
Jizzax	9 240,4	107,4	11 067,8	107,7
Qashqadaryo	16 768,8	105,4	19 548,0	107,7
Navoiy	39 859,2	110,5	52 553,1	106,1
Namangan	14 755,2	106,4	17 403,4	108,8
Samarqand	22 401,2	106,3	27 568,3	109,6
Surxondaryo	11 295,4	105,0	13 415,5	109,1
Sirdaryo	6 280,0	99,5	7 756,4	108,8
Toshkent	35 246,8	106,6	43 243,1	107,6
Farg'ona	20 477,6	106,7	24 361,9	110,4
Xorazm	11 888,0	106,8	14 280,8	110,6
Toshkent sh.	78 727,6	109,9	94 510,1	113,0

Mavzuga doir havola:

[YAIM \(YAHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YAIM \(YAHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

<sup>1</sup> Ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.


<sup>2</sup> Dastlabki ma'lumotlar

<sup>3</sup> 2025- yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlari qayta baholangan.

<sup>4</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2026- yilning yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri **21,1 %** ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Navoiy va Toshkent viloyatlari **11,7 %** va **9,7 %** ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YAIMini shakllantirishda eng kam ulush Jizzax (**2,5 %**) va Sirdaryo (**1,7 %**) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

### 2026- yilning yanvar-martida YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki




## II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

### 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha hajmi, mlrd so'm

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof solliqlar
O'zbekiston Respublikasi	447 935,3	36 182,4	124 852,4	26 393,0	240 079,0	20 428,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 495,8	1 143,4	2 694,3	1 338,7	6 956,1	363,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	22 701,2	3 016,8	7 285,9	1 378,8	10 277,3	742,4
Buxoro	18 176,9	3 304,8	4 137,0	1 900,6	8 334,9	499,6
Jizzax	11 067,8	2 544,9	2 405,0	717,8	5 074,0	326,1
Qashqadaryo	19 548,0	3 080,0	3 802,2	1 351,4	10 758,3	556,1
Navoiy	52 553,1	1 916,8	43 792,3	1 298,6	5 071,5	473,9
Namangan	17 403,4	2 277,7	3 224,1	1 268,0	10 272,5	361,1
Samarqand	27 568,3	4 535,6	5 187,6	1 523,8	15 799,8	521,5
Surxondaryo	13 415,5	3 014,0	1 277,9	1 337,3	7 567,6	218,7
Sirdaryo	7 756,4	1 145,4	2 852,4	493,7	3 021,0	243,9
Toshkent	43 243,1	4 209,3	20 613,6	2 729,5	14 393,4	1 297,3
Farg'ona	24 361,9	3 006,0	4 655,3	1 948,7	14 177,9	574,0
Xorazm	14 280,8	2 987,5	2 316,7	1 413,6	7 204,0	359,0
Toshkent sh.	94 510,1	-	18 103,9	7 161,2	61 541,7	7 703,3

2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHM tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax (**23,7 %**) va Surxondaryo (**22,8 %**) viloyatlarida, sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy (**84,1 %**) va Toshkent (**49,1 %**) viloyatlarida, qurilishning eng yuqori ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi (**11,0 %**) va Buxoro viloyatida (**10,8 %**), xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa Toshkent shahri (**70,9 %**) va Namangan viloyatida (**60,3 %**) kuzatildi.

**2026- yilning yanvar-martida YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da**



**2026- yilning yanvar-mart oylarida  
YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'atlari, % da**

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof soliqlar
O'zbekiston Respublikasi	108,7	105,1	108,0	115,0	108,8	108,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	112,9	102,3	107,4	170,0	109,4	120,0
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	108,6	105,6	108,4	113,3	108,7	111,0
Buxoro	109,6	106,0	108,2	122,5	108,7	114,1
Jizzax	107,7	104,2	107,8	118,6	107,7	110,9
Qashqadaryo	107,7	104,8	107,4	107,7	108,3	111,8
Navoiy	106,1	105,3	105,3	124,3	108,3	106,3
Namangan	108,8	104,6	108,8	116,1	108,7	113,6
Samarqand	109,6	105,3	109,0	109,7	110,7	116,3
Surxondaryo	109,1	109,7	108,7	109,7	108,8	111,1
Sirdaryo	108,8	107,8	108,9	114,6	107,9	112,6
Toshkent	107,6	102,4	107,8	106,7	108,7	110,2
Farg'ona	110,4	104,3	108,0	125,3	110,5	113,8
Xorazm	110,6	105,0	108,1	127,6	110,4	117,1
Toshkent sh.	113,0	-	107,1	109,3	115,1	113,8

### III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2026- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati O'zbekistonning barcha hududlari orasida aholi jon boshiga YAHM bo'yicha eng yuqori hududga aylandi. Joriy narxlarda uning hajmi **47,2** mln so'mni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi o'rinni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan **29,7** mln so'm YAHM bilan Toshkent shahri, uchinchi o'rinni esa **13,7** mln so'm bilan Toshkent viloyati egalladi.


#### Aholi jon boshiga YAHM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-mart

	2025- yil		2026- yil	
	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi	9 910,3	104,7	11 692,5	106,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 054,1	103,0	6 079,2	111,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	5 498,1	103,8	6 434,9	106,7
Buxoro	7 314,8	104,4	8 616,3	108,1
Jizzax	5 996,7	105,3	7 049,1	105,7
Qashqadaryo	4 597,1	103,1	5 248,6	105,4
Navoiy	36 334,8	108,5	47 196,3	104,5
Namangan	4 701,6	104,2	5 444,2	106,8
Samarqand	5 201,8	104,1	6 282,2	107,5
Surxondaryo	3 825,5	102,6	4 445,3	106,8
Sirdaryo	6 733,1	97,7	8 182,8	107,1
Toshkent	11 315,2	104,7	13 651,7	105,8
Farg'ona	4 930,3	104,6	5 757,6	108,4
Xorazm	5 838,9	104,9	6 891,9	108,6
Toshkent sh.	25 228,4	107,4	29 654,9	110,6

### IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHM (YAHM)dagi ulushi

2026- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kichik biznesning respublika YAHMidagi ulushi **45,6** % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining **72,9** % ini tashkil etgan), Farg'ona (**71,5** %) va Namangan (**68,0** %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy (**12,9** %) va Toshkent (**47,6** %) viloyatlarida qayd etildi.

### 2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi



#### V. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, YAIMga teng ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblash respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy tuzilmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha ishlab chiqarish usulida amalga oshiriladi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashning uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotni shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar sifatida yalpi ichki (hududiy) mahsulot hamda demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

#### VI. Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)

